

**MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHDA BOLALARGA
TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNI OLDINI OLISH**

SHOMUROTOV ULUGBEK MELIKBOBOYEVICH

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchi

u.shomurotov@dpi.uz +998915107420

XUDOYBERDIYEVA HALIDA YANGIBOYEVNA

XURRAMOVA GAVXAR ISHMIRZAYEVNA

YUSUPOV SHERZOD OMONOVICH

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabalari

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bolalarning maktab ta'limiga tayyorgarligiga ta'sir etuvchi omillar va ularni bartaraf etish yo'llari batafsil yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *oila, maktab, mahalla, jismoniy tarbiyalash, matematik tasavvurlar, xotira, diqqat, mehnat ko'nikmalari, tabiat bilan tanishtirish, kuzatish.*

Maktabning bola shaxsiga qo'yadigan asosiy talablaridan biri psixologik tayyorgarlikdir. Bolaning psixologik tayyorligi uning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeining o'zgarishi va kichik maktab yosh davridagi bolalar o'quv faoliyatining o'ziga xosligi bilan uzviy bog'liq. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, maktabga psixologik tayyorgarlik doimiy hisoblanmaydi, balki u doimo o'zgarib boyib boradi. Psixologik tayyorlikning tarkibiy jihatlarini: intellektual (aqliy), ma'naviy va irodaviy tayyorgarlikdan iboratdir.

Bolalarning maktab ta'limiga ta'sir etuvchi bir necha omillarni ko'rib chiqamiz.

1. Oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti - bolani maktabga tayyorlashda oilaning o'rnini juda kattadir. Bola tarbiyasida oilaning barcha a'zolaridan nafaqat bolalarga nisbatan to'g'ri munosabatni, balki ularning taqdiri uchun yuksak mas'uliyat hissini ham talab qiluvchi qiyin va murakkab ishdir. Oila bolani maktabga tayyorlashda tarbiyani har tomonlama, jumladan ma'naviy, axloqiy, aqliy, estetik, jismoniy va mehnat tarbiyalarini birgalikda olib borish yaxshi samara beradi. Ma'naviy tarbiyani bolaga o'tmishda Vatan ravnaqi, el-yurt tinchligi va farovonligi yo'lida kurashgan xalq qahramonlari haqida gapirib berish, davlatimizning ramziy belgilan bilan tanishtirish, mustaqillik, Vatan haqidagi she'r va qo'shiqlarni yod oldirish, qadriyat va an'analarimizni o'rgatish orqali singdirish mumkin. Oilaviy tarbiya jarayonida shaxsning bir qator axloqiy jihatlari shakllanadi-ki boshqa hech qaysi tarbiya obyekti oiladagidek yuqori natija bermaydi. Ularga insonparvarlik, mehmuruvvat, rahm-shafqat, hamdardlik, muomala madaniyati, burchi va sadoqat, minnatdorchilik kabi insoniy fazilatlar kiradi. Kelajak avlodga estetik tarbiya berishda ham oilaning muhim o'rnini bor. Oila davrasida qo'shiqlar kuylanishi, biror ertak yoki asarni oila davrasida o'qish, birga spektakl va kino ko'rish va tahlil qilish, kiyinish madaniyatini shakllantirish, uyda gullar parvarish qilish, rasm solish va hokazolar bolani estetik tarbiyasini shakllantirishdagi jihatlardir. Ota-onalar voyaga yetayotgan farzandlarining jismoniy barkamolligiga o'ta mas'uliyat bilan qarashlari lozim. Masalan: ertalabki badantarbiya mashqlarini bolalar bilan birgalikda bajarish, to'g'ri va vitaminlashtirilgan ovqat berish, dam olishni, uyquni to'g'ri tashkil etish vaqtida shifokor nazoratidan o'tkazishlari zarur. Bola hayotida mehnat tarbiyasi muhim sanaladi. Bolalarni mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularda mehnat qilish odobini shakllantirish va ko'nikmalar hosil qilishda ularning qiziqishlari hisobga olingandagina erishiladi. Ota-onalar bolani maktabga tayyorlashda unda mehnat ko'nikma va malakalarini hosil qilishga, mehnatga ehtiyojni tarbiyalashga, boshqalarning mehnatini qadrlashga, mehnat natijalarini ehtiyot qilishga o'rgatishga jiddiy e'tibor berishlari lozim. Mehnat bolalarda uyushqoqlik, diqqat, saranjom-

sarishtalikni tarbiyalash, shuningdek maqsadga erishishda sabot va matonat kabi iroda xususiyatlarini rivojlantirish vositasidir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining ota-onalar bilan ishlashidan jamoa tarzida va yakkama-yakka holda ishlash shakllarini mohirlik bilan qo'shib olib borish, keng aholi ommasi orasida pedagogik tashviqot ishlarini tashkil qilish tufayli bolalarni tarbiyalashda ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarining ota-onalar bilan hamkorlikdagi ishlaridan keng tarqalgan shakl va usullarini keltiramiz.

a) Ota-ona va oila bilan yakkama-yakka ishlash. Bunda oilaga tarbiyachining borishi, ota-onalar bilan suhbat o'tkazish, ularga maslahat berish, ota-onalarni bolaning maktabgacha ta'lim tashkilotidagi hayoti bilan tanishtirish kabilar kiradi.

b) Ota-onalar bilan jamoa tarzida tashkil qilinadigan ishlar. Bular ota-onalarning guruhiy va umumiy majlislari, ota-onalar maktabi, anjumanlar, shanbaliklar, savol-javob kechalari.

c) Ko'rsatmali ishlar - ishning bu turi ko'rgazmalar uyushtirish, bolalarning ishlarini namoyish qilish, ochiq eshiklar kuni, ota-onalar burchagi, ota-onalar uchun kutubxonalar tashkil qilish.

d) Bolaning oilasini borib ko'rish va oila a'zolari bilan yaqindan tanishish. Bolalar maktab ta'limiga tayyorgarligiga ta'sir etuvchi omillar haqida gapirar ekanmiz, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni oilada tarbiyaning ota-onalar bilan hamkorlikda, bundan keyin yanada takomillashtirish yo'llari izlab topilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

2. Ta'limiy faoliyat - tarbiyachi tomonidan bolalarga kerakli bilim va malakalarni umumiy holda xabardor qilish demakdir. Ta'limiy faoliyatlar kun davomida o'tkazib boriladi. Kunning birinchi qismiga mo'ljallangan mashg'ulotlar ancha samara beradi. Talimiy faoliyat jarayonida bolalarda mustaqil fikrlash ko'nikma va malakalari hosil qilinadi, tarbiyachining so'zini tinglash, o'rtoqlari bilan gaplashmaslik, har bir tarbiyachi tomonidan berilgan savollarga javob berishga harakat qilish, tarbiyachi tomonidan aytilgan fikrlarni

takrorlashga o'rgatib boriladi. Har bir yosh guruhlarda necha marta ta'limiy faoliyat o'tkazish bolalar maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'lim-tarbiya dasturida belgilab boriladi. Ta'limiy faoliyatning turlari haqida gapiradigan bo'lsak, talimiy faoliyatning turlari quyidagichadir:

a) Bolalarning bilimlarini sinovchi talimiy faoliyatlar - ushbu ta'limiy faoliyatlarni o'tkazishdan maqsad, tarbiyachi dasturda belgilangan bilim va malakalarini egallash darajasini bilib oladi va keyingi ishlari davomida ishlarni inobatga oladi.

b) Kompleks ta'limiy faoliyatlar - bu ta'limiy faoliyat bolalar maktabgacha ta'lim tashkiloti tajribasida keng tarqalgan bo'lib, bunday ta'limiy faoliyatlarda bolalarga yangi bilim beriladi.

Bolalarni maktabga tayyorlashda tarbiyachi ta'limiy faoliyatni bir bo'limidan bitta emas, balki butun bir ta'limiy faoliyatning mazunini rejalashtirib olib borilsa, ijobiy natijani qo'lga kiritadi. Tarbiyachiga metodik qo'llanmalardan foydalanib mashg'ulot o'tish tavsiya etiladi. Har bir MTTda metodik xonalar mavjuddir. Unda maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'lim-tarbiya dasturining hamda hamma bo'limlari bo'yicha metodik qo'llanmalar bo'ladi. Yetishmovchiliklarni tarbiyachi o'zi tayyorlaydi va bu ishga ba'zan tayyorlov guruhidagi, ya'ni maktabga tayyorlov guruhidagi bolalarni jalb etadi. Tarbiyachi ta'limiy faoliyat uchun kerakli jihozlarni bir kun avval tayyorlab qo'yadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotining bir birinchi kichik guruhida haftasiga o'tkaziladi. Ular quyidagicha 10 ta ta'limiy faoliyat o'tkaziladi.

3. Jismoniy tarbiya - maktabgacha pedagogikaning muhim bir bo'limi bo'lib, bizda qaror topgan jismoniy tarbiya tizimining dastlabki bo'g'inidir. Uning vazifasi, bola sog'ligini saqlash, jismoniy sifatlarini o'stirish, yoshlarni mehnatga va vatan himoyasiga tayyorlashdir. Jismoniy rivojlanish tor ma'noda bo'yni o'sishi, muskullarning ortishi va shu kabi antropometrik va biometrik ko'rsatkichlardir. Jismoniy rivojlanish kishi organizmini o'rab turgan muhitga bog'liqligi to'g'risidagi biologik qonuniyatlar asosida amalga oshiriladi. Masalan: hayot sharoitini jismoniy tarbiya metodini bir muncha o'zgartirish

orqali organizmning funksional imkoniyat darajasini bir muncha ko‘tarish, jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlarini yaxshilash mumkin. Jismoniy tarbiya deganda organizmning morfologik va funksional rivojlanishini jamiyat talablari darajasida amalga oshirish, jismoniy sifatlarni qobiliyatlarni rivojlantirish, harakat malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish, jismoniy madaniyat va sport sohasiga taalluqli maxsus bilimlarni o‘zlashtirib olish tushuniladi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning jismoniy tarbiyasi ular hayotini saqlash, sog‘ligini mustahkamlash, harakat malakalarini shakllantirish va to‘la ma’nodagi jismoniy tarbiya berish madaniy genetik malakalarni shakllantirish, batartib hayot kechirish odatini singdirishga qaratilgan. Kun tartibidagi aksariyat hollarda genetik va chiniqtiruvchi muolajalarni bajarish orqali bolaning bilim doirasi kengayadi, aqliy faolligi ortadi. U jasurlik, hallolik, batartiblik, qat’iylik, mustaqillik va shunga o‘xshash ijobiy xulq me’yorlari va qoidalarini ham egallab shakllanadi.

4. Bolalarni mehnat malaka ko'nikmalarini shakllantirish orqali maktabga tayyorlash. 5-7 yoshli bolalar katta yoshlilar mehnatiga zo‘r qiziqishi biror mehnat jarayonida kattalar bilan birga qatnashish yoki biror narsani mustaqil bajarish ishtiyoqini namoyon qiladilar. Ularning faoliyatlari kichik maktab yoshidagilarga nisbatan anchagina maqsadga yo‘naltirilgan, e’tiborlari hamda maqsadga qaratilgandir. Bolalarda mehnat malakalari mehnat qilish odatini shakllantirish har bir ishni oxiriga etkazish ko‘nikmasini tarbiyalash pedagogik jarayonini to‘g‘ri tashkil etib quyidagi qoidalarga rioya qilingandagina

1. Katta guruhlarga o‘ziga o‘zi xizmat ko‘rsatish mehnati, xo‘jalik turmush mehnati, tabiatdagi mehnat, shuningdek qo‘l mehnatini tashkil etish.

2. Kun tartibiga ko‘ra «Maktabgacha ta’lim dasturi asosida mehnat uchun nazarda tutilgan vaqtdan to‘liq foydalanish. Bolalarni har xil sport turlariga muntazam jalb qilish.

3. Mehnatning har xil turlari tashkil etilar ekan, bolalar faoliyatining yakka va jamoa turlaridan foydalanish.

4. Bolalar mehnatiga rahbarlik metod va usullarini ta'lim tarbiya vazifalariga muvofiq tanlash.

5. Xilma-xil mehnat turlarini tashkil etishda ularning bolalar faoliyatining boshqa turlari bilan oqilona birlashtirish orqaligina amalga oshirish mumkin. Har kuni kun tartibida guruhdagi barcha bolalar uchun va har bir bola uchun yakka mehnatni nazarda tutish kerak. Bolalar to'g'ri tashkil etilgan mehnatdan katta quvonch his qiladilar.

Katta maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning kun tartibida o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish mehnati sezilarli o'rin egallaydi. Tarbiyachilar mustaqil yuvinish, kiyinish ko'nikmasini shakllantirishni davom ettiradilar.

5. Kuzatishlar - atrof olam predmetlari va hodisalarini maqsadga muvofiq rejali idrok etishdir. Kuzatish murakkab bilim faoliyati bo'lib unda idrok, tafakkur va nutq ishtirok etadi. Barqaror diqqat talab etiladi. Kuzatilayotgan hodisani tushuntirishda bolaning tajribasi, bilimi va malakalari muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Tabiatni bolalar bilan birgalikda kuzatishni tashkil etar ekan bolalarda tabiat haqida bilimni shakllantiradi. Kuzatishni o'rgatadi, kuzatuvchanlikni o'stiradi, estetik jihatdan tarbiyalaydi. Predmet va hodisalarning xususiyati hamda sifatlari haqidagi bilimni shakllantirish maqsadida tashkil etiladigan qisqa muddatli kuzatuvlar jarayonida bolalar qismlarning shakli, rangi, kattaligi, tuzilishi, fazoviy joylashuvini, sathining harakatini farqlashni, hayvonlar bilan tanishganda esa harakat xarakteri ular chiqaradigan tovushlarni ham o'rganadilar va hokazo. O'simlik va hayvonlarning o'sishi hamda rivojlanishi tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar haqidagi bilimlarning jamg'arilishi uchun kuzatishning ancha murakkab turi uzoq muddatli kuzatishlardan foydalaniladi, bunda bolalarga obyektning kuzatilayotgan holatini ilgari bilan qiyoslashga to'g'ri keladi. Bu kuzatishlar davomida bolalarning zehni va kuzatuvchanligi o'sadi. Analiz qilish, qiyoslash, xulosa chiqarish jarayoni takomillashadi.

6. Axloqiy-irodaviy tayyorlik. Maktabda o'qishga axloqiy-irodaviy tayyorlik bolaning maktabgacha bolalik oxiriga kelib axloqiy xatti-harakat,

iroda, axloqiy hissiyotlar va ong rivojida unga yangi ijtimoiy nuqtai nazarni faol egallashiga hamda o'zining o'qituvchi va sinfdoshlari bilan o'zaro o'zaro munosabatlarini axloqiy asosda qurishga imkon beradigan darajaga erishishida ifodalanadi. Axloqiy irodaviy tayyorlik katta maktabgacha ta'lim yoshidagi bola shaxsiy xulq-atvor rivojining muayyan darajasida namoyon bo'ladi. Bu munosabatda bolaning maktabgacha ta'lim yoshi davomida rivojlanadigan o'z xulq-atvorini boshqarish qobiliyati qoidani yoki tarbiyachi talablarini ongli bajarish, dafatan asabiylashib ketishga erk bermaslik, qo'yilgan maqsadga erishishda qat'iyatni namoyon qilish, kerakli ishni o'ziga tortadigan, ammo maqsaddan chalg'itadiganiga qarshi o'laroq bajarish ko'nikmasi va shu kabilar e'tiborga loyiqdir. Bo'lajak o'quvchi xulq-atvordagi ixtiyoriylikning rivojlanish asosini maktabgacha ta'lim yoshi oxiriga kelib tarkib topadigan sabablar, o'zaro bo'ysunuvchilari tashkil qiladi. Maktabga axloqiy-irodaviy tayyorlikning tarkib topishida, shuningdek, katta maktabgacha ta'lim yoshidagi bola shaxsiy xulq-atvoridagi mustaqillik uyushganlik va intizomlilik kabi xususiyatlar ahamiyatlidir. Mustaqillik bilan uzviy bog'langan xulq-atvor qoidalarini bajarish, yangi sharoitlarda harakatning to'g'ri, odatiy usullaridan foydalanish, yordam berishga tayyorlik qobiliyatidir. Mustaqillik va xulq-atvordagi uyushganlik intizomlilik bilan xulq-atvordagi maqsadga yo'nalganlikda, o'z faoliyatini maktabgacha ta'lim tashkilotda qabul qilingan qoidalarga muvofiq ongli tashkil eta bilishda, faoliyat natijasiga erisha bilish va uni nazorat qilish, o'z xulq-atvorini boshqa bolalarniki bilan muvofiqlashtirish, o'z xatti-harakatlari uchun shaxsiy mas'uliyatni his qilishda o'z ifodasini topadi. Maktabga axloqiy-irodaviy tayyorlikning boshqa muhim tarkibiy qismi bolaning katta yoshlilar va tengqurlari bilan o'zaro munosabatlarini qoidalarga muvofiq tashkil eta bilishdir. Maktabga axloqiy-irodaviy tayyorlik, shuningdek, axloqiy hissiyot va bola ongi rivojining muayyan darajasi bilan ham ifodalanadi.

Xulosa

Bolalarni tarbiyalash davlat ahamiyatidagi vazifadir. Uning to'g'ri hal qilinishi tarbiya ishining qo'yilishiga kompleks yondashishga, tarbiyaviy

muassasalarning, oila va jamiyatchilikning to'liq o'zaro ta'siri va harakatlarning birligiga bog'liq. Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta'limiga o'tishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqishi va munosabtlarida anchayin jiddiy o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun bolani bog'chadayoq yoki uydayoq maktab ta'limiga tayyorlash, uni uncha qiyin bo'lmagan bilim, tushuncha, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirish lozim. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilar tomonidan o'tkaziladigan ta'limiy faoliyatlar jarayonida bolalarda mustaqil fikrlash ko'nikma va malakalari hosil qilinadi, tarbiyachining so'zini tinglash, o'rtoqlari bilan gaplashmaslik, har bir tarbiyachi tomonidan berilgan savollarga javob berishga harakat qilish, tarbiyachi tomonidan aytilgan fikrlarni takrorlashga o'rgatib boriladi. Har bir yosh guruhlarda qancha mashg'ulot o'tkazish maktabgacha ta'lim muassasasi ta'lim-tarbiya dasturida belgilab qo'yilgan. Har bir MTTda metodik xonalar mavjud bo'lib, unda MTTda ta'lim-tarbiya dasturining hamma bilimlari bo'yicha metodik qo'llamalar bo'ladi. Tarbiyachi ta'limiy faoliyat jarayonida yangi pedagogik texnologiya materiallaridan va tarbiyaning samarali metod va usullaridan foydalanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning asosiy vazifalari. Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning asosiy vazifalari bolalami jismoniy, aqliy va ma'naviy jihatdan shakllantirish, ularning tug'ma layoqati, ruhiy rivojlanishi, qiziqishi, ehtiyoji va imkoniyatlarini hisobga olgan holda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida muntazam ta'lim olishga (maktabga) tayyorlashdan iboratdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoni oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarning bajarilishi ushbu "Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari" orqali nazorat qilinadi. Davlat talablarida maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan tarbiya mazmunining asosiy yo'nalishlari hamda ularning maktabga tayyorlik darajasiga qo'yiladigan minimal talablar belgilab berilgan bo'lib, u davlat hujjati sifatida e'tirof etiladi. Davlat talablari ko'rsatkichlarini belgilashda davlat va jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi, ota-onalar, maktabgacha yoshdagi bolalarning

jismonan sogʻlomligi, qobiliyati, ruhiy rivojlanishi va imkoniyatlari, ya'ni bola shaxsining ustuvorligidan kelib chiqiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi boʻlishi kerak. -T. "O'zbekiston" 2017 yil-102 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori T- 2016y 29-dekabr
3. Xasanboyeva O.U "Maktabgacha ta'lim pedagogika" 2006 y. Ilm ziyo
4. Sh.A. Sodiqova "Maktabgacha pedagogika", "Tafakkur sarchashmalari" 2013 y.
5. Melikboboyevich, S. U. (2024). BOLALARNING PSIXIK RIVOJLANISHIGA O 'YINCHOQLARNING TA'SIRI. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 172-179.
6. MELIKBOBOYEVICH, S. U., QIZI, O. R. Z. S., & QIZI, Q. K. A. (2024). INSONIY MUOMALA VA MULOQOTNING PSIXOLOGIK VOSITALARI. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 180-188.
7. Melikboboyevich, S. U., & Annamuhimmat o'g'li, S. A. (2024). Psixodiagnostika metodlari va ulardan foydalanish. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 165-171.
8. Abdukarimovich, T. Y. L., Melikboboyevich, S. U., & Isokovich, U. F. (2024). Xotira haqidagi qarashlar va xotirani rivojlantirish. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 109-117.
9. Melikboboyevich, S. U. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR FAOLIYATNING PSIXOLOGIK TAHLILI. *NAZARIY VA*

AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY TA'LIMNING INNOVATSION YO'NALISHLARI, 1(2), 93-103.

10. Melikboboyevich, S. U. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA O 'YIN FAOLIYATINING XUSUSIYATLARI. BOLA HAYOTIDA O 'YINNING AHAMIYATI. NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY TA'LIMNING INNOVATSION YO'NALISHLARI, 1(2), 85-92.